

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH: MAZMUNI VA AHAMIYATI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası

tayanch-doktoranti.

Pardayeva Ra'no Eshboyevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda deontologik madaniyatni shakllantirishning mazmuni, bosqichlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik amaliyot, axloqiy tarbiya, reflektiv yondashuvlar va mentorlik tizimining ahamiyati yoritilgan. Deontologik madaniyat nafaqat nazariy bilimlar, balki o'qituvchi shaxsining ma'naviy barkamolligini ta'minlovchi muhim kasbiy fazilat sifatida qaraladi. Maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida pedagog shaxsining axloqiy kamoloti haqida fikr yuritilgan, amaliy taklif va tavsiyalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *deontologik madaniyat, bo'lajak pedagog, pedagogik etika, kasbiy burch, tarbiyaviy jarayon, pedagogik amaliyot, etik qadriyatlar*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются содержание, этапы и практическое значение формирования деонтологической культуры у будущих педагогов. Исследование освещает роль педагогической практики, нравственного воспитания, рефлексивного подхода и наставничества. Деонтологическая культура представляется не только как совокупность теоретических знаний, но и как важное профессиональное качество, обеспечивающее духовное совершенство личности учителя. В статье приведены предложения по гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании педагогов.*

Annotation: *This article explores the content, stages, and practical importance of forming deontological culture among future teachers. The*

research highlights the significance of pedagogical practice, moral education, reflective approaches, and mentorship in this process. Deontological culture is viewed not only as a set of theoretical concepts but also as a vital professional trait that contributes to the teacher's moral and spiritual development. The article also discusses the integration of national and universal values in shaping the ethical identity of educators and provides practical recommendations.

Keywords: *deontological culture, future teacher, pedagogical ethics, professional duty, educational process, pedagogical practice, moral values*

Kirish (Introduction)

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish va yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4310-sonli qarori “Pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”da bo‘lajak pedagoglarning kasbiy va axloqiy tayyorgarligini kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Shuningdek, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarda ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Mazkur huquqiy asoslar shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifati va samaradorligi bevosita o'qituvchi shaxsiga — uning axloqiy yetukligi, mas'uliyat darajasi, kasbga munosabati va ichki intizomiga bog'liq. Shu jihatdan, pedagogik ta'lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik madaniyatni shakllantirish nafaqat kasbiy tayyorgarlikning bir bo‘lagi, balki ijtimoiy ehtiyoj sifatida dolzarb masalaga aylanmoqda.

Deontologik madaniyat — bu o'qituvchining kasbiy faoliyatda etik me'yorlarga sodiqligi, shaxsiy namunadorligi, vazifasiga sadoqati va ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his qilgan holda faoliyat yuritishidir. Bunday madaniyatga ega bo'lgan pedagog — nafaqat o'rgatuvchi, balki tarbiyachi va yetakchi shaxs bo'lib shakllanadi.

Uslub (Methods)

Mazkur maqolada sifatli tadqiqot metodlari asosida tahlil yuritildi. Pedagogik deontologiyaga oid ilmiy adabiyotlar, o'quv dasturlari, psixologik va tarbiyaviy yondashuvlar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida pedagogik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan olib borilgan suhbatlar, kuzatishlar va amaliyot natijalari asos qilib olindi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar va milliy o'ziga xosliklar ham solishtirildi.

Ushbu tadqiqot bo'lajak pedagoglarda deontologik madaniyatni shakllantirish jarayonini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda sifatli (kvalitativ) tadqiqot metodlariga asoslanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini pedagogik, psixologik va axloqiy yondashuvlar tashkil etdi. Dastlab, deontologik madaniyatga doir nazariy asoslar, yurtimizdagi ta'lim siyosati bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4310-sonli qarori (2019-yil 29-aprel), "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" va boshqa muhim dasturlar tahlil qilindi. Mazkur hujjatlar bo'lajak pedagoglar shaxsini axloqiy jihatdan yetuk va mas'uliyatli tarzda shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishini ko'rsatib berdi.

Tadqiqot jarayonida Respublikamizdagi bir nechta pedagogik oliygohlarda tahsil olayotgan talabalar ishtirokida kuzatuvlar olib borildi. Jumladan, Surxondaryo, Samarqand, Qoraqalpoq va Farg'ona davlat universitetlari Pedagogika fakultetlarida tahsil olayotgan 3- va 4-bosqich talabalarning pedagogik amaliyot davridagi xatti-harakatlari, kasbiy munosabatlari, etik me'yorlarga bo'lgan e'tibori kuzatildi. Ushbu kuzatuvlar

natijasida talabalar deontologik madaniyatni amaliyotda qanday namoyon qilayotgani, real muammoli vaziyatlarda qanday qaror qabul qilayotgani va bu qarorlar qanday asoslanganiga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot doirasida pedagogik amaliyotdan so'ng talabalar bilan yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Intervyular yordamida ularning kasbiy burch, etik qadriyatlar va pedagogik munosabatlar haqidagi shaxsiy qarashlari o'rganildi. Shu bilan birga, amaldagi ustoz-pedagoglar bilan ham suhbatlar tashkil etildi. Ular orqali pedagogik tajriba davomida qanday deontologik muammolarga duch kelishgani, bunday vaziyatlarda qanday yondashuvlar qo'llaganliklari tahlil qilindi.

Bundan tashqari, xorijiy adabiyotlar va xalqaro tajribalar o'rganilib, O'zbekiston sharoitida deontologik madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar, madaniy kontekst va tarixiy tajribaning hisobga olinishi zarurligi aniqlashtirildi. Shuningdek, pedagogik deontologiya fanining o'quv dasturlari, amaliy mashg'ulot materiallari va baholash mezonlari o'rganilib, ularning samaradorlik darajasi baholandi.

Tadqiqotda olgan ma'lumotlar tahliliy va taqqoslamali yondashuv asosida ko'rib chiqildi. Yig'ilgan sifatli ma'lumotlar asosida asosiy xulosalar chiqarildi, tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu uslubiy yondashuvlar orqali bo'lajak pedagoglarning deontologik madaniyatini shakllantirish jarayonining murakkabligi, bosqichma-bosqich rivojlanishi va ularning ichki motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlashtirildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot davomida bo'lajak pedagoglarda deontologik madaniyatni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshayotganini, ammo bu yo'nalishda bir qator tizimli muammolar va imkoniyatlar mavjudligini aniqlashga erishildi. O'zbekistonning bir nechta pedagogik oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar va amaliy tahlillar asosida quyidagi muhim natijalar qayd etildi:

1. Talabalarning deontologik tushunchalar bo'yicha nazariy bilimlari nisbatan yetarli, ammo ularning amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llanilishi har doim ham samarali emas. Pedagogik etika, kasbiy madaniyat va axloqiy qadriyatlar haqidagi darslarda ishtirok etgan talabalar deontologik me'yorlarni tushunadi, lekin amaliyot paytida ba'zi real vaziyatlarda bu bilimlarni qanday qo'llashni bilmasligi kuzatildi.

2. Pedagogik amaliyot tajribasi deontologik madaniyatni mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Talabalar o'zlari o'qituvchi rolida chiqib, o'quvchi, ota-ona va jamoa bilan muloqot qilganida axloqiy mas'uliyatni chuqurroq his qila boshlaydilar. Bunda mentor-o'qituvchining namunasi, maktabdagi kasbiy muhit va talabaga nisbatan munosabat katta ta'sir ko'rsatmoqda.

3. O'quv jarayonida deontologik madaniyatga oid o'qitiladigan fanlarning amaliyot bilan integratsiyasi yetarli emas. Ba'zi holatlarda talabalar etik me'yorlar yoki kasbiy qoidalarining mavhum tushunchaligidan shikoyat qilishdi. Bu esa o'quv dasturlarida konkret hayotiy vaziyatlar bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish mashqlariga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

4. Shaxsiy refleksiya va o'zini baholash ko'nikmalari sust rivojlangan. Intervyu va suhbatlarda talabalarning aksariyati o'z kasbiy xatti-harakatlarini tahlil qilishda qiynalishi, ko'proq tashqi baholarga tayanishi aniqlandi. Bu esa pedagogik jarayonda reflektiv fikrlashni rivojlantirish metodikasi sust qo'llanilayotganidan dalolat beradi.

5. Deontologik qadriyatlar talabalar shaxsida asta-sekinlik bilan shakllanmoqda, ammo bu jarayon tizimli qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Kasbiy burch, sabr, mehr, hurmat, xolislik kabi fazilatlar aksariyat talabalar tomonidan qadrlanmoqda. Biroq, ularni ichki motivatsiyaga aylantirish uchun shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan, murabbiylik asosidagi yondashuv zarur.

6. Talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida shakllanayotgan deontologik madaniyat kuzatilmoqda. Xalqimizning

an'anaviy odob-axloq me'yorlari, "ustoz-shogird" tamoyili, katta-yu kichikni hurmat qilish kabi qadriyatlar talabalarning kasbiy etikasiga tabiiy ravishda singmoqda. Bu esa milliy madaniyat asosidagi tarbiyaning ijobiy natijalarini ko'rsatadi.

Munozara (Discussion)

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarda deontologik madaniyatni shakllantirish murakkab, ko'p bosqichli va shaxsga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy faoliyat, ichki motivatsiya, shaxsiy tajriba va tarbiyaviy muhit bilan uzviy bog'liqdir. Natijalarda aniqlanganidek, talabalarda etik tushunchalar va kasbiy mas'uliyat haqidagi bilimlar mavjud bo'lsa-da, ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari har doim ham yetarli emas. Bu holat, o'z navbatida, o'quv jarayonidagi metodik yondashuvlar, pedagogik amaliyot sifati va mentorlik tizimining holatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Pedagogik deontologiya nazariyasiga ko'ra, deontologik madaniyat — bu o'qituvchining kasbiy burchlarini anglash, axloqiy me'yorlarga sodiqlik, professional odob-axloq qoidalariga amal qilish, o'z harakatlariga nisbatan javobgarlik his qilish va jamiyat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglashdan iborat murakkab tizimdir (Rasulov, 2021). Bu jihatlar talaba-shaxsda shakllanishi uchun, uni faqatgina ma'ruza va seminarlar orqali emas, balki integratsiyalashgan, faol va reflektiv pedagogik metodlar orqali o'qitish zarur.

Tadqiqotda aniqlanishicha, deontologik madaniyat ko'proq amaliyot davomida shakllanmoqda. Shu sababli pedagogik amaliyotni o'quv jarayonining markaziy elementi sifatida qayta tashkil etish, har bir talabaning o'z ustoz-mentori bilan individual ishlashini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bu ustoz-shogird aloqasi orqali axloqiy qadriyatlar, kasbiy mas'uliyat va pedagogik madaniyat real faoliyat orqali shakllanadi. O'zbekistonning milliy ta'lim an'analari, xususan, "ustoz-avlod", "katta-kichik hurmati",

“odoblilik” kabi qadriyatlar deontologik madaniyatni rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, talabalar o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishda qiynalayotgani, refleksiya ko‘nikmalarining sustligi ham kuzatildi. Bu esa shaxsiy reflektiv tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalar — kundalik yuritish, esse yozish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar va kasbiy simulyatsiyalardan faol foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Refleksiya o‘qituvchi shaxsini ongli tarzda shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi, u kasbiy o‘sish uchun asos yaratadi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, pedagogik deontologiya o‘qituvchining nafaqat professionalligi, balki shaxsiy madaniyati, fuqarolik mas’uliyati va odob-axloqiy qiyofasini belgilaydi. Masalan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “O‘qituvchi etika kodeksi”da o‘qituvchining har bir faoliyati — dars berish, muloqot, baholash va tarbiyaviy ta’sirda axloqiy me’yorlarga rioya qilish majburiy deb qaraladi. O‘zbekistonda bu kabi kodekslar hali keng joriy qilinmagan, ammo ularni milliy qadriyatlar asosida ishlab chiqish va pedagogika oliygohlarida tatbiq etish deontologik madaniyatni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, bo‘lajak pedagoglarda deontologik madaniyatni shakllantirishda individual yondashuv, shaxsiy namuna, axloqiy savol-javoblar, etika bo‘yicha guruhviy tahlillar va boshqa zamonaviy metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kasbiy muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (case-study), rolli o‘yinlar (role-play) orqali talabalarni real hayotga tayyorlash, axloqiy qaror qabul qilishga o‘rgatish dolzarb hisoblanadi.

Umumiy xulosa:

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, deontologik madaniyatni shakllantirish — bu nafaqat dars orqali, balki hayotiy tajriba, shaxsiy refleksiya, amaliyot va ijtimoiy muhit orqali tarkib topadigan murakkab jarayondir. Talabalar orasida

bu madaniyatning shakllanish darajasi turlicha bo'lsa-da, kasbiy burch, odob-axloq, shaxsiy namunadorlik, empatiya kabi asosiy tamoyillarga intilish mavjud. Biroq bu jarayonni kuchaytirish uchun metodik, tashkiliy va tarbiyaviy jihatdan yanada faolroq yondashuv talab etiladi.

Bo'lajak pedagoglarda deontologik madaniyatni shakllantirish — bu ularning professional shakllanishi, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishi va namunaviy shaxs bo'lishiga asos bo'ladi. Bu madaniyat ularning o'quvchilar bilan munosabatlarida, kasbga bo'lgan sadoqatida va jamiyatda tutgan o'rnida yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik ta'limda bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilishi zarur — chunki bu o'qituvchining kasbiy salohiyati, axloqiy yetukligi va shaxsiy namunadorligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi “Pedagog xodimlarning maqomi to'g'risida”gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 2019-yil 16-oktabr. lex.uz
3. Abdukarimov, S. (2020). *Pedagog kadrlar tayyorlashda axloqiy qadriyatlar tizimi*. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
4. Karimova N. “Pedagogik etik va deontologiya asoslari”, Toshkent, 2020.
5. Jo'rayev M. “Kasbiy pedagogika va etika”, Samarqand, 2019.